

FIZIKA O'QITUVCHILARINING KOMPETENTLIGINI RIVOJLANGANLIGINING MAVJUD HOLATI.

Fayziyeva Xolida Asadovna

Buxoro davlat universiteti

Fizika-matematika va axborot texnologiyalari
fakulteti Fizika kafedrası o'qituvchisi.

fayziyevaxolida7@gmail.com,

x.a.fayziyeva@buxdu.uz,

[tel:\(90\)718-34-02](tel:(90)718-34-02).

Kirish. Hozirgi zamon ta'limi jarayonida fizika fani o'qituvchisidan nafaqat nazariy bilimlarga ega bo'lish, balki ulardan amaliyotda samarali foydalanish, zamonaviy pedagogik va raqamli texnologiyalarni qo'llay olish, o'quvchilarda ilmiy - tadqiqot ko'nikmalarini shakllantira olish, shuningdek, shaxsiy va kasbiy kompetensiyalarni namoyon etish talab etiladi. Shu bois fizika o'qituvchilarining kompetentligini rivojlanganlik holatini aniqlash ta'lim sifatini baholashning eng muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi.

Kalit so'zlar: Kompetentlik, Web-platforma, kompetensiya, simulyatsiya, raqamli texnologiyalar.

So'nggi yillarda ta'lim tizimining modernizatsiyasi, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish va kompetensiyaga asoslangan yondashuvning afzal etilishi o'qituvchilik kasbining mohiyatini tubdan o'zgartirdi. Bugungi kunda o'qituvchi nafaqat bilim manbai, balki o'quv jarayonining tashkilotchisi, yo'naltiruvchisi va motivatori sifatida qaralmoqda. Shu sababli, fizika o'qituvchisining kasbiy kompetentligini rivojlantirish



masalasi nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki butun ta'lim tizimining barqaror rivojlanishini ta'minlovchi asosiy omilga aylandi.

Kompetentlik bu - o'qituvchining o'z kasbiy faoliyatida bilim, ko'nikma, malaka va shaxsiy sifatlarni kompleks tarzda qo'llay olish qobiliyatidir. Fizika o'qituvchisi uchun bu quyidagi tarkibiy qismlar bilan ifodalanadi: fan kompetentligi, metodik kompetentlik, axborot - kommunikatsion kompetentlik, refleksiv kompetentlik va ijtimoiy-kommunikativ kompetentlik.

O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida fizika o'qituvchilarini tayyorlashda axborot texnologiyalarining o'rni kengayib bormoqda, ammo Web-platformalardan foydalanish madaniyati hali yetarli darajada shakllanmagan. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchilarning aksariyati Web platformalarda darslarni yaratish va boshqarishda cheklangan tajribaga ega. Bu holat o'qituvchilarning raqamli kompetentligini oshirish bo'yicha metodik yondashuvlarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

Fizika o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi muammolar hal etilishi zarur: 1) metodik tayyorgarlikni kuchaytirish – bunda o'qituvchining dars samaradorligi oshadi va o'quvchilarni faol o'quv jarayoniga jalb etish darajasi kuchayadi; 2) Web-platformalarda ishlash bo'yicha maxsus kurslar tashkil etish – bundan kutiladigan natija o'qituvchilarning raqamli kompetensiyasi ortadi va ta'lim jarayoni interaktiv hamda qulay bo'ladi; 3) virtual laboratoriyalarni keng joriy etish – bunda esa o'quvchilarning tajribaviy va tadqiqot kompetensiyasi kuchayadi hamda qimmat jihozlarga bo'lgan ehtiyoj qisqa muddatda qoplanadi; 4) refleksiv yondashuvni rivojlantirish – bundagi kutilayotgan natija esa o'qituvchi o'z faoliyatidagi kamchiliklarni o'zi aniqlay oladi, innovatsion yondashuvlarni mustaqil ravishda izlaydi va dars sifati barqaror oshib boradi.



O'zbekiston ta'lim tizimida bunday natijalarga erishish uchun Web asosidagi metodik modelni ishlab chiqish va uni pedagogik amaliyotga joriy etish zarur. Shuningdek, o'qituvchilarning refleksiv tahlil, o'z - o'zini baholash va ijodiy yondashuvini rivojlantirish ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa o'rnida aytish joizki, 1) Fizika o'qituvchilari kompetentligining rivojlanganlik holati o'rta darajada baholanadi, chunki Web-platformalardan foydalanish amaliyoti yetarli emas.

2) Raqamli ta'lim texnologiyalarini samarali joriy etish uchun o'qituvchilarni qayta tayyorlash va ularning raqamli madaniyatini oshirish zarur.

3) Web muhitda o'qitish fizika o'qituvchilarining metodik, axborot-kommunikatsion va refleksiv kompetentligini kompleks rivojlantirish imkonini beradi.

4) Shu sababli, bo'lajak fizika o'qituvchilarining kompetentligini rivojlantirish uchun Web platformalarga asoslangan metodik modelni ishlab chiqish dolzarb vazifadir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Shulman L.S. Knowledge and Teaching: Foundations of the New Reform // *Harvard Educational Review*. – 1987. – Vol. 57(1). – P. 1–22.
2. Mishra P., Koehler M.J. Technological Pedagogical Content Knowledge: A Framework for Teacher Knowledge // *Teachers College Record*. – 2006. – Vol. 108(6). – P. 1017–1054.
3. Anderson L.W., Krathwohl D.R. *A Taxonomy for Learning, Teaching, and Assessing: A Revision of Bloom's Taxonomy of Educational Objectives*. New York: Longman, 2001. – 352 p.

4. Darling-Hammond L. Constructing 21st-Century Teacher Education // *Journal of Teacher Education*. – 2006. – Vol. 57(3). – P. 300–314.
5. OECD. *The Future of Education and Skills: Education 2030*. Paris: OECD Publishing, 2018. – 42 p.
6. UNESCO. *Rethinking Education: Towards a Global Common Good?*. Paris: UNESCO Publishing, 2015. – 85 p.
7. Jonassen D.H. Designing Constructivist Learning Environments // In: Reigeluth C.M. (Ed.). *Instructional Design Theories and Models. Volume II*. Mahwah, NJ: Lawrence Erlbaum Associates, 1999. – P. 215–239.
8. Voogt J., Fisser P., Pareja Roblin N., Tondeur J., van Braak J. Technological Pedagogical Content Knowledge – A Review of the Literature // *Journal of Computer Assisted Learning*. – 2013. – Vol. 29(2). – P. 109–121.